

## BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING YOZMA VA OG'ZAKI NUTQNI SHAKLLANTIRISH

**Bosimova Mahliyo Dilshod qizi**  
*Termiz davlat pedagogika instituti*  
*Boshlang'ich ta'lif fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotation:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqni shakllantirish haqida bo'lib, unda o'quvchilarning taqqoslash, qiyoslash, tas'niflash, tahlillash, mustaqil va mulohazali fikr yuritish, tizimlash hamda umumlashtirish, xulosalar chiqarish singari aqliy faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalarini nutq orqali shakllantirish uchun mashqlar, usullar va bosqichlari haqida fikr yuritilgan

**Kalit so'z:** savod o'rgatish, nutq o'stirish, to'g'ri yozish, og'zaki nutq, yozma nutq, boshlang'ich sinf o'quvchilari, bilim, ko'nikma.

Nutq inson faoliyatining eng takomillashgan va jamiyatda muaomala munosabatga kirishishida, ijtimoiylashuvidan asosiy vositadir. Fikr bayon qilishning asosiy qurolidir. “Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi”.

Boshlang'ich sinflarda og'zaki va yozma nutqni o'stirish bu eng asosiy vazifa va maqsad hisoblanadi. O'quvchilarning aqliy rivojlanganlik darajasi og'zaki va yozma nutqdagi obrazlilik orqali ko'rindi. Nutqni o'stirish o'qish va imlo savodxonligi, to'g'ri yozish qoidalarini o'zlashtirish jarayonining shakllaridir. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan ona tili o'qish savodxonligi darsligining ham asosiy vazifasi savod o'rgatish va nutq o'stirish, o'qish va nutq o'stirish, grammatika va nutq o'stirish, to'g'ri yozish va nutq o'stirishdan iboratdir. Og'zaki yoki yozma nutq o'zi nima? Og'zaki nutq bola ko'rgan kechirganlarini, eshitganlarini, o'qiganlarini og'zaki tarzda o'z fikrlarini qo'shgan holda og'zaki so'zlashidir. Yozma nutq esa ularni yozuvda ask ettirishi hisoblanadi. O'quvchilar maktabga ilk kelgan kunlaridan boshlab ularda qayta hikoyalash va tasvirlashga bo'lgan qizish paydo bo'la boshlaydi. Shu sababli o'qituvchi savod o'rgatishning ilk kunlaridan boshlab nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish ustida bolalar bilan ish olib boradi. Shu tariqa kichik yoshdagi o'quvchilarni nutqiy faoliyatini ma'lum maqsad sari yo'naltirilgan bo'lib, til birliklari natijasida shakllantiriladi.

A.A.Leontev: "Odam tom ma'noda muloqotga kirish uchun bir qator ko'nikmalarni: muloqot sharoitida tez va to'g'ri yo'nalishni belgilab olish; o'z nutqini to'g'ri shakllantirish; nutq mazmunining o'zaro o'xshash( adekvat) usullarini topish, muloqotni ushlab turish va davomiyligini ta'minlash kabilarni o'zlashtirib olish maqsadga muvofiqdir. Agar muloqot talablarining biror qismi buzilsa, so'zlovchi undan kutilayotgan natijaga erisholmay qoladi, ya'ni suhbat samarasiz bo'ladi"-deya ogohlantiradi. Bundan ko'rinish turibdiku muloqot, nutq inson hayotida eng muhimdir.

Metodik adabiyotlarda o'quvchi nuqtining rivojlanishi quyidagi ko'nikmalarining shakllanishi bilan bog'liqligini ta'kidlanadi:

- 1) Muloqot vaziyatiga moslashish va o'zining bu jarayondagi vazifalarini aniqlab olish;
- 2) Muloqot mazmunini rejalaشتirish;
- 3) O'z fikrini shakllantirish va o'zgalarni tushunishni bilish;
- 4) O'zi va hamsuhbatining nutqini nazorat qilish, uning suhbatdoshga ta'siri va tushunilishini ta'minlash.

Bundan ko'rindiki, kichik yoshdagi o'quvchilarning nutqini takomillashtirish ustida ishlash nafaqat o'z fikrini ifodalash balki ularni qabul qilishni ham nazarda tutadi. Boshlang'ich sinfda kichik yoshdagi o'quvchilarning nutqini shakllantirish uchun har xil mashqlardan ham foydalanish mumkin. Ularga quyidagilarni keltirish mumkin. O'quvchilar:

- o'zlarini tuzgan matndagi muloqot vazifalari va ko'tarilgan masalalarni taqqoslashi;
- sarlavhasi va matnning boshlanish qismidan uning mazmuni va xarakterini anglagan holda matnga sarlavhalar topishi;
- asar matni yuzasidan fikr ifodalashga tayyorlanib reja tuzishi;
- matndagi so'z, ibora va jumlalarning qismlari asosida berilgan topshiriqlar ustida ishlashi;
- bir qator so'z ko'magida so'z birikmalar va jumlalar tuzish;
- har xil nutqiy birikmalar yaratish;
- ma'lum kuzatishlardan keyin belgilangan yo'naliш bo'yicha matnni qayta yaratish;
- ma'lum maqsad asosida asarni tahlil qilish va taqriz qilish;
- matnni uning tahlilidan so'ng qayta yaratish;
- matnning mavjud bo'laklari yoki qo'shimcha qismlar ko'magida yangi matn yaratish;
- qayta hikoya qilishda tilni his qilishi, so'zga e'tiborli bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari o'quvchining nutqi haqida gap ketar ekan, o'qituvchi bunda asosan eshitish, gapishtish, o'qish va yozishlarni ham nazarda tutishi lozim, albatta. Mana shunday ko'plab kuzatishlar natijasida ma'lum bo'ladiki fikr nutq faoliyatining predmeti, til bu faoliyatning vositasi, nutq esa bu jarayonda qo'llaniladigan usuldir.

Xulosa o'rnida keltiradigan bo'lsak og'zaki va yozma nutqni shakllantirishda badiiy asarlardan, ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kichik janrlardan, masalan, she'r, matn, ertak, hikoya va boshqalardan foydalanish eng samarali usullardan hisoblanadi. Bundan og'zaki nutqda qolaversa ular asosida kichik matn yaratish orqali yozma nutqini ham shakllantishni yo'lga qo'yish mumkin. Zeroki, boshlang'ich sinflarda nutq faoliyati ularning har qanday sharoitda o'z-o'zidan, tashqi ta'sirlardan holi bo'lgan holda ham suhbatlasha olishidir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi.- Qunduzxon Husanboyeva va b.Samarqadn.SamDu nashriyoti 2019.
2. Bolalar nutqini o'stirish.- Babayeva Dono.Najmuddinova Gulnoza. Toshkent "Innovatsiya-ziyo" 2021.
3. Ona tili o'qitish metodikasi- Karima Qosimova va b. Toshkent " Nosir" nashriyoti.2009.
4. Olloqulova F. U. Value relationships in young people and the uniqueness of their decision making //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – С. 9.8.
5. Olloqulova F. U. TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. – 2023.
6. Ulasheva A., Olloqulova F. TA'LIMIDA TIZIMIDA INNOVATION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2.– №. 4.–С. 40-44.
7. Olloqulova F. U. TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. Tadqiqotlar, 6 (2), 336–339. – 2023.
8. Olloqulova F. U. et al. SHAXSNI SHAKLLANISHIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 967-969.
9. Shodiyev O. F. U. RD Qadriyatli munosabatlar va ularni ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantirishdagi yondashuv tamoyillar //Jurnal nomi: QarDU xabarlari ilmiy, nazariy, uslubiy jurnal.–2017.
10. Оллокулова Ф. Boshlang 'ich sinf o 'quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 10/S. – С. 128-134.
11. Xusanov R. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 100-103.
12. Umedillayevna O. F. Tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik tavsifi //Tadqiqotlar jahon ilmiy metodik jurnal/6-sont.
13. Ulasheva A., Olloqulova F. TA'LIMIDA TIZIMIDA INNOVATION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 40-44.
14. Umedillayevna O. F. In the Lessons of the Native Language and Reading Development of Children's Speech by Retelling //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 110-113.
15. Olloqulova F. U. et al. Non-Traditional Approach to the Process of Teaching Primary Classes //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 96-98.

16. Umedillayevna O. F. et al. Using Innovative Educational Technologies Pedagogical Effectiveness of Using Foreign Experiences //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-132.
18. Olloqulova F. U. TADQIQOTCHILIK FAOLIYATI TABIIY JARAYON //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 2. – №. 1.
19. Saxadinova S., Olloqulova F. U. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA NUTQ O 'STIRISH VA NUTQ MADANIYATI //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 98-100.
20. Xusanov R., Olloqulova F. SHAXS SHAKLLANISHIDA SHARQ MUTAFFAKIRLARI QARASHLARI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 34-39.
21. Bosimova M., Olloqulova F. MUAMMOLI METODLAR VOSITASIDA O 'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 11-13.
22. Gulnoza Ochildeeva, & Muminova Umida Karshievna. (2023). METHODS AND MEANS OF FORMING A POSITIVE ATTITUDE OF STUDENTS TO THE ENVIRONMENT IN THE EXTRACURRICULAR PROCESS. European Scholar Journal, 4(3), 106-108. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/3302>
23. Hasanova Gulbahor Davlatmamatovna, & Muminova Umida Karshievna. (2023). STUDYING THE SOCIAL, EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF SCIENTIFIC AND POPULAR ARTICLES IN PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. Open Access Repository, 4(03), 46–52. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QR64M>
24. Qarshiyevna, M. U. (2023). Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language. WebofSynergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(1), 389-394.
25. Muminova, U. (2023). "MAHBUB UL-QULUB" ASARIDAGI MA'NO KENGAYISHIGA UCHRAGAN SO'ZLAR XUSUSIDA. Interpretationandresearches, 2(1).